



Mars sayyorasi haqida qiziqarli faktlar.

Abdunabiyeva Saida Zavqiyevna

Toshkent viloyati Parkent tumani 2-son kasb-hunar maktabi

Fizika-astronomiya fani o'qituvchisi


+99894 929 03 13

***Annotatsiya:** Quyoshdan uzoqligi bo'yicha to'rtinchi o'rinda turuvchi-Mars sayyorasi hamda kelajak yillarda insonlarning bu sayyora hududida uchun shart-sharoit yaratish va buning uchun qo'llaniladigan usullar haqida fikr-mulohaza yuritiladi. O'quvchi maqola orqali Mars sayyorasi haqida qiziqarli ma'lumotlarni qo'lga kiritadi.*

***Kalit so'z va iboralar:** Mars, sayyora, qizil sayyora, atmosfera*

Mars (123-rasm)

Nomi: Mars
Quyoshdan uzoqligi: 228 mln.km
Diametri: 6775 km
Zichligi: 3,94 g/sm³
Massasi: $6,44 \cdot 10^{24}$ kg
O'z o'qi atrofida
aylanish davri: 24 soat 39,5 minut
Quyosh atrofida
aylanish davri: 687 Yer sutkasi
Orbital tezligi: 24,13 km/sek
Yo'ldoshlari: Fobos va Deymos
O'qining og'maligi: 24°48'



Актив
Чтобы
перей



Marsning atmosferasi juda siyrak bo'lib, sirtida o'rtacha bosim 6,1 millibar (1 bar taxminan 1 atmosfera). Mars atmosferasining 95 % i karbonat angidrid,

2,5 % i azot, 1,52 % i argondan va juda kam miqdordagi kislorod (0,2%) va suv bug'idan (0,1%) tashkil topgan.

1. Mars dunyodagi barcha fantastik romanlarning bosh qahramonidir.
2. Mars sayyorasining nomini qadimgi rimliklar o'ylab topgan.
3. Qadimda Marsning rangi va odam qoni bir xil deb hisoblashgan.
4. Mars sayyorasi tuprog'i tarkibida temir moddasi oksidlari ko'pchilikni tashkil etadi.
5. Mars osmonida temir moddasiga ega tuproq changlari miqdori keragidan bir necha barobar ko'proq. Shuning uchun bo'lsa kerak, Mars osmoni pushtiga moyil rangga ega.
6. Mars sayyorasida sayr qilish uchun albatta skafandr zarur bo'ladi.
7. Kunduzi Marsda havo harorati +300 darajaga yetadi. Kechasi havo haddan tashqari sovib ketadi. Havo harorati -800 darajani tashkil etadi.
8. Marsda shamol soatiga 180 km tezlikda esadi. Shamollar, aniqrog'i, bo'ronlar haftalab davom etadi.
9. Mars shu qadar sirliki, olimlar bu sayyorada ham o'ziga xos «Bermud uchburchagi» bor deb hisoblashadi.
10. Marsga yerdan juda ko'plab fazo uskunalari uchirilgan. Ularning aksariyati izsiz g'oyib bo'lgan.
11. Agar odam Marsning ustki qismiga qadam qo'ysa, o'sha zahoti uning vazni uch barobarga kamayib ketadi.



12. Hech havoning muzlaganini ko'rganmisiz? Yo'q albatta. Marsda bu narsa mavjud. Sayyorada havoning ham muzlaganiga guvoh bo'lish mumkin.

13. Marsda ham qish fasli mavjud.

14. Marsdagi Oy Deymos deb ataladi. U bir kecha kunduzda ikki marta sayyoraning g'arb tarafida yuz ko'rsatadi. Xuddi shuncha marta sharq qismida Deymosning botganini kuzatish mumkin.

15. Marsning yoshi 4, 5 milliard yilga tengligi aniqlangan.

16. Mars diametri Yerga nisbatan ikki hissa kamroq. Vazni esa 10 barobar kamroq.

17. Marsni ilk bor 1609 yili Galiley ko'rishga muyassar bo'lgan.

18. Mars va Yerdagi kecha-kunduz oralig'i deyarli bir xil.

19. Marsda bir yil bizdagi 687 kunga teng.

20. Mars atmosferasi asosan ugleroddan tashkil topgan.

21. Gollandiyada Marsga sayohat 2023 yili tashkil etilishi mo'ljallangan. Ammo qanday qilib sayohat tashkil etilishi mumkin? Hatto, sayyoraning ustki qismida zarur bo'ladigan skafandr ham o'ylab topilmagan. Bu savollarga esa javobning o'zi yo'q.

22. Mars Yerdan kichikroq. Uning yarim diametriga to'g'ri keladi.

23. Qachonlardir Marsda ham magnit maydoni mavjud bo'lgan. Lekin keyinchalik g'oyib bo'lgan va undagi atmosfera quyosh tomondan esgan shamollarda uchib ochiq fazoga chiqib ketgan.

24. Hozirgi paytda Mars atmosferasi zaharli gazlardangina iborat.

25. Marsda suv bor. Muz ko'rinishida albatta. Havo bosimi bu sayyorada shu qadar pastki, suyuqlikka aylangan suv o'sha zahoti qaynab, bug'ga aylanadi.

26. Marsning ikkita yo'ldoshi bor. Biri Deymos, ikkinchisi Fobos deb nom olgan. Birinchisining ma'nosi «Dahshat», ikkinchisining «Qo'rquv». Qachonlardir Fobos Mars bilan to'qnashadi-yu, yakson bo'ladi.



27. Marsning vazni Yer vaznining 10 foizigagina teng.
28. Marsda juda kuchli shamollar esadi. Biroq ular sayyoraga jiddiy xavf solmaydi.
29. Sayyoradagi changdan iborat bo'ronlar atmosferani qumlar bulutiga to'ldirishi tufayli o'ta xavfli sanaladi. Bo'ronlar oylab to'xtamaydi.
30. Marsdagi bir kun Yerdagidan yarim soatga uzunroq. Atmosferadagi siyraklik oqibatida tun va kun juda tez almashadi.
31. Marsda Quyosh tizimidagi eng baland tog' bor. Tog' Olimp deb nomlangan. Bu tog'ning balandligi 27 kilometr keladi.
32. Mars juda sovuq sayyora hisoblanadi. Lekin yozda sayyora ekvatorida havo harorati +20 darajagacha ko'tariladi. Sayyoraning o'zida esa -45-50 darajani tashkil etadi.
33. Bir necha milliard yil oldin Marsda suv yetarlidan-da ko'proq bo'lgan. Faqat sayyora sovigach, suv muzga aylangan.
34. Havo haroratining sakrashi natijasida Marsda kunduzlari quruq, kechasi esa nam havo hukm suradi.
35. Marsda zich holdagi atmosfera mavjud bo'lmagani bois uning ustki qismiga qadam qo'ygan odam o'sha zahoti radiatsiya nurlari ta'sirida o'lim topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Mamadazimov "Davr nashryoti" "Astronomiya" 11-sinf darslik 2018 yil
2. M.Mamadazimov, A.Narbayeva, F.Dadaboyeva "Astronomiya o'qitishning innovatsion usullari" "TerDu-nashr matbaa markazi" Termiz 2021 yil
3. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7492923>